



Social-pedagogical significance of forming the research activity of primary class students on the basis of concentricism

Farzona OLLOKULOVA¹

Termez State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2022

Received in revised form

25 September 2022

Accepted 20 October 2022

Available online

25 November 2022

Keywords:

concentrate,
concentricism,
synthesis,
young age,
research.

ABSTRACT

In this article, social-pedagogical significance of the formation of research activity based on concentricism in elementary school students, the stages of organizing research activity in the concentric method are considered.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

konsentr,
konsentrizm,
sinzetiv,
kichik yosh davri,
tadqiqotchilik.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, konsentrik usulda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish bosqichi masalalari ko'rib chiqilgan.

¹ Teacher, Termez State Pedagogical Institute. E-mail: rustamkhurramov@mail.com.

Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концентризма

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

концентрат,
концентризм,
синтез,
молодой возраст,
исследование.

В данной статье рассматривается социально-педагогическое значение формирования исследовательской деятельности на основе концентризма у учащихся начальной школы, этапы организации исследовательской деятельности при концентрическом методе.

KIRISH

Bugun bozor munosabatlariga asoslangan, texnika va texnologiyalari rivojlangan bir davrda, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy ma'rifiy qiyofasini yuksaltirishda yoshlar ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini egallashi va ishtirokchisiga aylanmog'i, mavjud vaziyatlarda yechimlarni izlash, taqqoslash, tahlil qila olish, maqbulini tanlay olish malakasiga ega bo'lmog' i lozim, bu esa, keng dunyoqarashga ega, o'z fikrini erkin bayon qila oladigan, yuzaga kelgan muammolarni tahlil etishga qodir, mustaqil bilim olishga intiladigan va uni qo'llay biladigan, kreativ fikrlovchi tadqiqotchi avlod tarbiyasi kun masalasiga aylandi. Kichik maktab yoshidanoq mustaqil ishlash, tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yishdek vazifalarni bajaruvchi bilim, ko'nikmalarni egallashlariga qaratilgan ta'lim mazmuniga ega bo'lishi lozim. Demak, yoshlardagi ayniqsa kichik maktab yosh davrida ehtiyoj sifatida yuzaga keluvchi layoqatlarini ilg'ash, rivojlantirish bosqichlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish zarur. Ma'naviy imkoniyatni saqlash, tizimlashtirish, tartibga solish va yanada rivojlantirish o'quv jarayonining murakkab, mazmunli va tizimli tashkil etilishidadir.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchi yoshlarning nufuzli xalqaro baholash dasturida ishtirok etib, muvaffaqiyatli natijalarga erishishlari uchun nafaqat ularning belgilangan yo'nalishlar bo'yicha bilimlarini mustahkamlashni, balki o'quv jarayoniga ongli munosabatni shakllantirish, bilim olish, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, faolligini oshirish, ilmiy, ijodiy, o'z ustlarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish, bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish, hayotiy faoliyatda yuzaga keluvchi turli muammolarni qiyosiy tahlil qilish, mushohada yuritib maqbul yechimlarni tanlay olish, qat'iy qaror va pozitsiyaga ega bo'lish kabilarni o'quvchilar faoliyatida konsentrizm asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Konsentrizm bu mavjud muammoni bir necha marta, lekin murakkablik elementlari bilan, kengaytirilgan holda, ta'lim mazmunini yangi komponentlar bilan boyitgan holda, ular o'rtasidagi bog'liqlik va uzviylikni chuqurroq hisobga olgan holda taqdim etilishiga imkon beradi.

Konsentr so'zi lotincha kon-(birlashma, jamoa, moslik ma'nosini bildiruvchi prefiks) va centrum (markaz, konsentratsiya) so'zlaridan hosil bo'lgan. Konsentrik usul biron-bir muammoni o'rganish zarurati tug'ilganda qo'llaniladi. So'ngra ushbu muammo diqqat (tadqiqot) markaziga qo'yiladi va unga bog'liq, yaqin, masalalar, savollar, hodisalar, faktlar va hokazolarga oid mavzular atrofida davralarda to'planadi, so'ngra muammo yechimini ko'rsatuvchi keyingi savollar orqali yechimga keltiriladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, kishining ma'lum yosh davrida bilimni egallashga bo'lgan ehtiyojning kuchliligi, tevarak atrofda ro'y berayotgan voqea hodisalarga tanqidiy tahliliy yondashish, uni o'zlashtirishga nisbatan faol harakatning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanuvchi sinzetiv davr mavjud. Aynan kichik yosh davrida ayniqsa 6-10 yosh bolaning bilishga bo'lgan motivi kuchli bo'lib, tevarak atrofni idrok etish, hodisalarning mohiyatini anglashga bo'lgan harakat ayni faollashgan jarayon hisoblanadi. "Bu nima?", "Nima uchun bunaqa?", "Nimalardan tarkib topgan?" kabi savollar orqali atrof olamni o'rganishga uni o'zlashtirishga harakat kichik yosh davriga xos xususiyatdir. Har bir shaxs mavhum, shakllanmagan, unversal izlanuvchanlik, ijodkorlik, tadqiqotchilik layoqatiga ega. Bolaning kichik yosh davridan boshlab, ayniqsa 2-3 yosh davrida atrofdagi barcha narsalarni ushlab ko'rishga, rangini farqlashga, tishlashga, buzib, tuzib ko'rishga ko'rinishini o'rganishga qaratilgan faoliyat yuzaga keladi. Soat sayin qiziqishlari oshib fantaziyalar yaratish, yana ham ko'proq narsalarga egalik qilish, uni buzish qayta tuzish, nimalardan yasalganligini o'rganish, anglangan hatti-harakatlarini takror bajarib ko'rish, oyoq qo'l harakatlari orqali yuzaga kelgan tovushlarni qayta-qayta bajarib ritmliligini anglashga harakat qiladi. Bolada tadqiqotchilik, yangiliklar yaratishga qiziqishini rivojlantirish maqsadida ulardagi motivni qo'llab quvvatlash, rag'batlantirish, yangi narsalarga intilish, atrof-muhitni o'zlashtirishga ko'maklashish lozim. Tadqiqotchilik faoliyatini ro'yobga chiqarish, qobiliyatga aylantirish esa tizimli ravishda avvalo oilada, so'ng ta'lim muassasasida uzluksiz ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim va tarbiya va uning davomi sifatida boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayoni bola aqliy intellektual faoliyati rivojlanishida yetakchi sanaladi. Bunda berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv materialining murakkablik darajasi, uni tashkil etish va amalga oshirish shakli o'quvchilarda yuzaga keladigan bir muncha murakkab aqliy faoliyatini tizimli, tartibli, izchil shakllantirishga asos hisoblanadi. L.V.Zankov o'quv materialining yuqori qiyinchilik darajasida o'qitish lozimligini "rivojlanish ta'lim tamoyillari" konsepsiyasida, – "Agar o'quv materiali va uni o'rganish usullari shunday bo'lsa, maktab o'quvchilari uchun hech qanday to'siqlarni yengib o'tish kerak emas, demak, bolalarning rivojlanishi sust va zaifdir", – deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchilik faoliyati yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga intellektual qobiliyat, ob'yektivlik, ishonchlilik, kreativlik, inovatsionlilik, ijodkorlik, tizimlilik, nostandart yondashuv, farazlarni ilgari surish, mushohadalilik, aniqlik xos. Tadqiqotchilik amaliyot va nazariyadan iborat. Tadqiqotchilik faoliyatiga konsentrik yondashuv ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish, mavjud echimlarni murakkablashgan savollar orqali farazga olib borish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Mazkur vazifalarni amalga oshirish konsentrizm asosida tashkil etilishi, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifat ko'rsatkichi bo'yicha yuqori darajani egallash maqsadida o'qituvchining va o'quvchilarning pedagogik o'quv-bilish faoliyatini uygunlashtirish va o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil qilishni talab etadi. Tadqiqotchilik o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil qilishning o'zi yetarli emas. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning eng muhim jihati eng avvalo ularni tadqiqotchilik ruhida tarbiyalashdir. Bunda o'quvchi ushbu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'lgan munosabatni bilishi muhim. Har qanday ishni amalga oshirish eng

avvalo ehtiyojga aylanishi, bola uni beixtiyor qiziqib ijodiy faoliyatga aylantirishi muhim. Shunda bola tevarak atrofdagi oddiy elementlarni ham o'zi uchun kashf etib, tadqiq etib boshlaydi, uni o'rganishga harakat qiladi, nostandart yechimlarini ko'rsata oladi, tadqiq etib boshlaydi.

Tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda shaxsdagi mavjud aqliy imkoniyatlarni harakatga keltirib muammoni aniqlay olish, tanlangan muammo yuzasidan mavjud nazariyalarni tahlil qilish, farazni ilgari surish, yechimga sabab bo'luvchi metod va vasitalarni tanlash, o'zlashtirish material to'plash, ularni saralash va umumlashtirish, shaxsiy xulosalar chiqarish konsentrizmga asoslangan holda amalga oshiriladi. Shu o'rinda tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish ma'lum bir tuzilishga ega emas. Uni har bir shaxs o'zining bilish, o'zlashtirish imkoniyatidan kelib chiqib, amalga oshiradi. Shu boisdan tadqiqot faqatgina kundalik darslarda olib boriladigan ko'rsatmalardan iborat ta'lim jarayoni bo'lib qolmasligi, kundalik har qaysi jarayonda yuzaga keluvchi muammolarni tahliliy, tanqidiy yechimlarni ko'rsatuvchi xarakter xususiyat sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bunda ayniqsa pedagog faqatgina tadqiqotni tashkillashtiruvchi, uni amalga oshirishni nazorat qiluvchi bo'lib qolmasdan, ilmiy qoidalarga mos kelmaydigan tadqiqotchi pozitsiyasini egallashi, yangi yechimlardan hayratlanishi va muhim, qiziqarli jihatlarini tahlil qilishi zarur. Bu o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni ortishiga yangi g'oya va fikrlarning namoyon bo'lishiga, o'z ustida ko'proq ishlash va yangi yechimlarni ko'rsatishga bo'lgan motivni kuchayishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini konsentrik uslubda shakllantirish bu masalaga tanqidiy tahliliy yondashuvni, mulohaza, fikr va xulosaga tayanishni, har qanday masalaga ongli yondashuvni to'g'ri, asosli yechimni taklif etib olish malakasini egallashning muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa bugungi fan va texnika rivojlangan bir davrda o'z qat'iy qaror va g'oyaga ega bo'lgan, tadqiqotchilik faoliyati rivojlangan ijodkor, istedodli, novator o'quvchilarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Xo'sh, bunday o'quvchilarni qanday tarbiyalash mumkin? Qachonki bajarilayotgan har qaysi ish ijodga aylansa, ya'ni motivatsion, ijodiy yondashilsa, samarali natijaga erishiladi. Shu jihatdan, o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini tarkib toptirish murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirish tizimli, uzluksiz pedagogik faoliyatni talab etadi. Eng avvalo shaxsda qiziqish motivini shakllantirish, ehtiyojlarni aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shunda bajarilayotgan ish ijodiy ahamiyat kasb etib samarali natijaga erishiladi. O'quvchilar mustaqil ishlarga, tadqiqot loyihalarida faol jalb etishga o'rgatish ularni qiziqish, yangi g'oyalar yaratish, o'rganish va o'zlashtirish, ixtirolar qilish, ularni tahlil qilish amaliy ahamiyatini aniqlash, taqqoslash, fikrlarni hurmat qilishni o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konsentrizm asosida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning pedagogik shartlari:

1. Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish.

Bolaning yosh xususiyati uning aqliy faoliyat darajasini aniqlashda, beriladigan ma'lumotlar sig'imi va o'zlashtirish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Individual yondashuv esa har bir bolaning o'ziga xos layoqat va qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda tadqiqot jarayonini tizimlashtirishdir.

2. O'quvchilarning tadqiqot jarayonini faollashtirish.

Dars va darsdan tashqari jarayonlarda tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirish, o'quv faoliyati mazmunini muammoli izlanuvchan vaziyatlar orqali murakkablashtirish,

o'quvchilarning yangi g'oya va firlarini qo'llab quvvatlash, samarali yechimlarni ko'rsata olishga ishonirish, motivatsiya berish va qiziqish chegarasini kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

3. O'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning konsentrizm asosida qurishni ta'minlash.

O'quvchi yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish, farazni olg'a sura olish, yechim variantlarini ko'rsatish va qaytar aloqani ta'minlash ya'ni yechimlarni muammoga bog'lash va maqbul yechimlarni ko'rsata olishni nazarda tutadi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning maqsadliligi va tizimliligini ta'minlash.

O'quv jarayoni o'quvchining kundalik faoliyatini tadqiqotchilik xarakterda amalga oshirish uchun dastlabki bilim ko'nikmalar bilan qurollantiradiva boyitib boradi. Bunda butun o'quv jarayonini maqsadli va tizimli tashkil etishni o'quv vazifalarini murakkablashtirib, doimiy muammoli vaziyatlar yaratish, izlanuvchan xarakterli, ijodiy, tanqidiy yondashish asosida qurishni va kundalim faoliyatga aylantirishni nazarda tutadi.

5. Samarali ta'lim muhitini yaratish.

O'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish avvalo o'qituvchining ta'limni insonparvarlashtirishi va yuksak kasbiy mahoratni egallaganligi orqali tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi tadqiqotchilik faoliyatini har bir dars mazmunida singdirib borishi ya'ni turli muammoli vaziyatlarni keltirishi, o'quvchilarni fikrlashga undashi, bildirilayotgan fikrlarni qo'llab quvvatlashi va ba'zi yechimlardan hayratlana olishi, tadqiqotchi pozitsiyasini egallashi va mavjud yechimlarni umumlashtirish va maqbul yechimni ko'rsata olishidir.

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xarakter xususiyatida tadqiqotchilik faoliyatini singdirish.

O'quvchilarda ta'lim samaradorligi bu kundalik faoliyatni tizimli va to'g'ri tashkil etish va uning odat tusiga aylanishga bog'liq. Bunda ta'lim mazmunini muammoli izlanuvchan xarakterda tashkillashtirish bola faoliyatida adabtatsiya hosil bo'lishiga, mavjud muammoga tanqidiy tahliliy yondashuvchanlik paydo bo'lishiga olib keladi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konsentrik usulda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish bosqichlari:

1. O'quvchilarda muayyan muammoga qiziqish motivini shakllantirish. Bunda o'qituvchining faoliyati yetakchi jarayon hisoblanib, o'quvchilarda ko'rsatmalar orqali yo'l yo'riq berish, tadqiqot natijasini ko'rsatish va uning ahamiyatini ochish orqali tavsiflanadi.

2. O'quvchilarda ijtimoiy ehtiyojni aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilar tadqiqotning ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyatini, zaruriyatini aniqlash orqali tadqiqotning ijobiy salmog'ini belgilash.

3. Bir qancha g'oya va farazlarni yaratish va olg'a surish.

4. Muammoni bir qancha yechimlarini aniqlash va tahlil qilish;

Muammo yuzasidan bir qancha nazariy, amaliy yechimlarni ko'rsatish, tahlil qilish, umumlashtirish va o'z nuqtai nazarini himoya qila olish.

5. Yechimlarni murakkablashgan savollar orqali muammoga bog'lash.

6. Maqbul yechimlarni tanlay olish va umumlashtirish.

7. Xulosalar chiqarish, ixtirolar qilish.

Ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich sinf o'quv jarayonlarini doimiy murakkablashtirib, tizimli, dinamik tashkil etish va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tez-tez uyushtirish, tashkil etish shakllarining xilma-xilligiga erishish o'quvchilarning ma'naviy kuchining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, har bir fan doirasida mavzuga oid muammolarni qo'yilishi va yechimlarni izlab topishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish, o'qituvchining ko'rsatmalari asosida turli yechimlarni ko'rsata olish va umumlashtirish ham o'quvchi yoshlarda tevarak atrofni bilishda har bir narsa, voqea, hodisa, jarayonga nisbatan savol nazari bilan qarash nomalum bo'lgan yangi xususiyatlarini izlashga, kashf etishga o'rgatadi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, o'quv faoliyati jarayonida mukammalashib, boyib boradi va bu jarayon konsentrik usulda doimiy amalga oshirilib ta'lim mazmunida o'z aksini topsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konsentrik usulda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda aynan bir andoza mavjud emas. Shu boisdan, o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini konsentrik yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyatli jihati shundaki, bunda eng avvalo bolada tadqiqotchilik faoliyatiga nisbatan motiv berish, qiziqish ko'lamini kengaytirish, kundalik faoliyatga aylantirish, kreativlik, ijodiy, tanqidiy, tahliliy yondashuv, novatorlik kabi fazilatlar ham yetakchi faoliyat hisoblanadi va umumiy yaxlit tarzda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori.

2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprelda 187-sonli qarori.

3. R.D. Norqobilova, S.K. Zoirova, B.M. Tajimirzayeva. "Nigh spiritual generation-third renaissance builders". Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol.12, Issue 05, May 2022.

4. R.D. Norqobilova, S. Xoliyeva, M. Mamatmurodova. "The importance of people's oral creativity in the development of speech by primary school students". European Journal of Humanities and Educational Advancements. [https:// www.scholarzest.com](https://www.scholarzest.com) Vol.3 No.06, June 2022 2660-5589. 84-86.

5. Xoliqova P.A "Leksik tushunchalar haqida ma'lumot" Science and education. 458-465 betlar.

6. R.D. Norqobilova, P. Nazarova. "Pedagogical Possibilities of education of young generation at Abu Rayhan Beruni teaching". Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June 2022. 1908-1911.

7. Abduhalimova Y.N. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darslarda kreativligini shakllantirish pedagogic muammosifatida" Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal (1042-b).

8. R.D. Norqobilova, S. Ibrohimova, M. Mamatmurodova. "Pedagogical and Psychological Factors of using the heritage of asian thinkers in the formation of logical thinking in primary school science". European Journal of Humanities and Educational Advancements. <https://www.scholarzest.com> Vol.3 No.06, June 2022 2660-5589. 81-83.

9. S.I. Tursunova. “Uzbekistan is a country of friendship”. Web of Scientist: International Scientific Research Journal.185-189 В VOLUME 2, ISSUE 7, JULY-2021.

10. R.D. Norqobilova. “Methods of Forming Beautiful Writing Skills in Primary School Students”. International Journal of Development and Public Policy. |e-ISSN: 2792-3991 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 1 Issue: 7 181–183.